

UO‘T: 633.51/11+631.5/559

TUPROQQA ISHLOV BERISH USULLARI VA GERBITSIDLARNI QO‘LLASHNING G‘O‘ZA-G‘ALLA MAYDONLARIDA UCHRAYDIGAN BEGONA O‘TLARGA TA’SIRI

B.N.Nabiyev mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini innovatsion texnologiyalar bilan jadallashtirish, begona o‘tlarga qarshi kurashish usullarini takomillashtirishni taqazo etadi. Begona o‘tlar zararini kamaytirishda uyg‘unlashgan kurash tizimini joriy etish natijasida ularni batamom yo‘qotish imkoniyati yaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Begona o‘tlar, g‘o‘za, kuzgi bug‘doy, agrotexnika, tuproq, shudgor, gerbitsid, fitosanitar, kimyoviy kurash, dona/m².*

KIRISH.

Dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlarining 33 mln. gektarga yaqin maydonlarida paxta va 100 dan ortiq mamlakatlarda 200 mln gektardan ziyod maydonda kuzgi bug‘doy yetishtirilib, begona o‘tlar bilan zararlanish natijasida yetishtirilgan hosilning 10-15% yo‘qotilmoqda. Dunyoning Xitoy, Germaniya, AQSh, Braziliya, Argentina, Hindiston, Pokiston, Avstraliya, Janubiy Koreya, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston kabi boshqa bir qator davlatlarida 3000 dan ortiq turdagi begona o‘tlar tarqalgan bo‘lib, shulardan 200 dan ortiq turi asosiy qishloq xo‘jalik ekin maydonlarini zararlamoqda. Begona o‘tlarga qarshi uyg‘unlashgan holda agrotexnikaviy va kimyoviy kurash tadbirlarini birgalikda olib borilishi bugungi kunning dolzarb masalasi xisoblanadi.

Dunyoda paxta va kuzgi bug‘doy yetishtiruvchi rivojlangan davlatlarda begona o‘tlarga qarshi kurashishda, tuproqqa har xil usullarda ishlov berish bilan birga gerbitsidlarni shudgor oldidan, chigit ekish bilan birga hamda o‘simliklarni vegetatsiya davri davomida qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Paxta-g‘alla navbatlab ekish tizimida maydonlarning fitosanitar holatini birgina tuproqqa ishlov berish tadbirlari bilan yaxshilashga har doim ham erishib bo‘lmashligini e’tiborga olgan

holda, gerbitsidlarni boshqa agrotadbirlar bilan birgalikda uyg'unlashgan holda olib borish natijasida ijobiy natijalar olinmoqda.

Respublikamizda g'oz hamda kuzgi bug'doy ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish borasida tuproqqa asosiy ishlov berish usullari bilan birga gerbitsidlarni turli xil muddat va me'yorlarida uyg'unlashgan holda qo'llab tadqiqotlar olib borish juda muhim xisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, paxta hamda g'alla maydonlarida tarqalgan begona o'tlarga qarshi kurashishda tuproqqa asosiy ishlov berish usullari va gerbitsidlarni uyg'unlashgan holda qo'llashning samaradorligini aniqlash hamda amaliyotga keng joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning maqsadi Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida g'oz-g'alla navbatlab ekish tizimida g'oz va kuzgi bug'doy ekinlari parvarishlanayotgan maydonlarda uchraydigan begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan (tuproqqa asosiy ishlov berish usullari bilan birga gerbitsidlarni qo'llash) holda kurashishda ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta'minlaydigan agrotexnologiyani takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatuv va taxlillar PSUEAITda qabul qilingan "Dala tajribalarini o'tkazish" uslubnomasi asosida, tajriba variantlarida tuproqning agrofizikaviy, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalarini o'rganish "Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в полевых хлопковых районах" uslubiy qo'llanmalari bo'yicha, olingan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi umum qabul qilingan B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" uslubi yordamida matematik-statistik tahlil Microsoft Excel kompyuter dasturi asosida amalga oshirilgan.

Тажриба тизими.

G'oz			Kuzgi bug'doy		
Tuproqqa ishlov	Gerbitsidlar nomi	Gerbitsid	Tuproqqa ishlov	Gerbitsidlar nomi	Gerbitsid

	berish usuli		me'yori, l/ga	berish usuli		me'yori, g/ga
	Oddiy plugda 28-30 sm, chuqurlikd a shudgorlas h	Nazora t, gerbitsidsiz	-	G'oz a qator orasiga 15- 20 sm chuqurlikd a kultivator yordamida ishlov berish	Nazorat, gerbitsidsiz	-
		Dafosat (etalon)	6,0		Granstar 75% DF	20,0
		Stomp 33% e.k.	2,0		Gransta r plyus 75%	25,0
	Ikki yarusli plugda 28-30 sm chuqurlikd a shudgorlas h	Nazora t, gerbitsidsiz	-		Nazorat, gerbitsidsiz	-
		Dafosat (etalon)	6,0		Granstar 75% DF	20,0
		Stomp 33% e.k.	2,0		Granstar plyus 75%.	25,0

G'ozada olib borilgan tadqiqotlar 6 ta variant, 4 ta takrorlashda va 1 yarusda joylashtirilib olib borildi. Har bir variantning maydoni 720 m², hisobga olish maydoni 360 m² ni tashkil qildi. Tajribaning umumiy maydoni 1,728 gektar.

Kuzgi bug'doyda olib borilgan dala tajribalari 2012-2015 yillarda 6 ta variant, 4 takrorlashda, 1 yarusda olib borildi. Har bir variantning maydoni 720 m², hisobga olish maydoni 360 m² ni tashkil qildi. Tajribaning umumiy maydoni 1,728 gektar.

TADQIQOT NATIJALARI

Tuproqqa ishlov berish usullari hamda gerbitsidlarni qo'llashni g'oz maydonlaridagi begona o'tlarga ta'siri

Hozirgi rivojlangan davr qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar bilan jadallashtirish, begona o'tlarga qarshi kurashni kuchaytirish hamda kurashish

usullarini takomillashtirishni taqazo etadi. Begona o'tlar zararini kamaytirishda tuproqqa turli usulda ishlov berish bilan birga gerbitsidlardan uyg'unlashgan holda foydalanish natijasida ularni batamom yo'qotish imkoniyati tug'iladi.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda g'o'za-g'alla navbatlab ekish tizimida begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan kurash chora-tadbirlarini amalga oshirishda tuproqqa asosiy ishlov berish usullari bilan birga gerbitsidlarni qo'llashni g'o'za va kuzgi bug'doy dalalaridagi begona o'tlarga ta'siri va keyingi ta'sir samaradorligini aniqlash maqsadida g'o'za maydonida olib borilgan tajribamizda tuproqqa asosiy ishlov berish va yuza ishlov berishdan oldin begona o'tlar soni hisobga olib borildi.

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tuproqqa oddiy plugda 28-30 sm chuqurlikda ishlov berishdan oldin daladagi begona o'tlar soni hisobga olinganida, bir yilliklar soni 28 dona/m² ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, ko'p yilliklarda 23 dona/m² ni tashkil etganligi aniqlandi. Bahorda ushbu fonda tuproqqa yuza ishlov berishdan oldin begona o'tlar soni hisobga olinganida, bir yilliklari soni 21 dona/m² donaga, ko'p yilliklar soni 13 dona/m² ga teng bo'lganligi qayd etildi.

Ikki yarusli plugda 28-30 sm chuqurlikda shudgorlashdan oldin daladagi begona o'tlar soni hisobga olinganida, bir yilliklar soni 29 dona/m² ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, ko'p yilliklarda 22 dona/m² ni tashkil etganligi aniqlandi. Bahorda (2012 y.) ushbu fonda tuproqqa yuza ishlov berishdan oldin begona o'tlar soni hisobga olinganida, bir yilliklari soni 14 dona/m² donaga, ko'p yilliklar soni 8 dona/m² ga teng bo'lganligi kuzatildi.

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ikki yarusli plugda 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanganda, tuproqqa oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda ishlov berishga nisbatan bir yillik begona unib chiqishi 7 dona/m² ga, ko'p yillik begona o'tlar 5 dona/m² ga kam bo'lganligi kuzatildi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shunday xulosa qilish mumkinki, tuproqqa oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgor qilinganda nisbatan ikki yarusli plugda 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanganda begona o't qoldiqlari va urug'larini chuqur qatlamlarga ko'milishi hamda shugorlash oldidan ko'p yillik begona o'tlarga

qarshi Dafosat gerbitsidini 6,0 l/ga me'yorda qo'llash natijasida ularning urug'larini hamda ildiz poyalarini unuvchanligi past bo'lganligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqotimizda begona o'tlarga qarshi tuproqqa asosiy ishlov berishdan oldin Dafosat va chigit ekish bilan birga Stomp gerbitsidlarini uyg'unlashgan holda qo'llashni begona o'tlarni turi hamda tarkibiga ta'siri samaradorligini o'rganish maqsadida tajriba maydonidagi barcha variantlarda begona o'tlar soni 20, 40 va 60 kundan so'ng hisobga olib borildi. Kuzatuvlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, tuproqqa oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgor qilinib, begona o'tlarga qarshi gerbitsid qo'llanilmagan nazorat variantida birinchi kuzatuvimizda bir yillik begona o'tlar soni 21,45 dona/m² ni, ko'p yillik begona o'tlar soni esa 14,40 dona/m² ni, kuzgi shudgor oldidan Dafosat gerbitsidi 6,0 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda bir yillik begona o'tlar soni 20,45 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa 13,85 dona/m² ni, chigit ekish bilan birga Stomp gerbitsidi 2,0 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda bir yillik begona o'tlar soni 21,15 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa 14,55 dona/m² ni tashkil etganligi aniqlandi.

Ikki yarusli plugda 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanib, begona o'tlarga qarshi gerbitsid qo'llanilmagan nazorat variantida birinchi kuzatuvimizda bir yillik begona o'tlar soni 16,93 dona/m² ni, ko'p yillik begona o'tlar soni esa 11,95 dona/m² ni, kuzgi shudgor oldidan Dafosat gerbitsidi 6,0 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda bir yillik begona o'tlar soni 16,40 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa 11,70 dona/m² ni, chigit ekish bilan birga Stomp gerbitsidi 2,0 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda bir yillik begona o'tlar soni 16,85 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa 12,20 dona/m² ni tashkil etganligi qayd etildi.

Tajribada begona o'tlarga qarshi tuproqqa ishlov berish usullari hamda gerbitsidlarni uyg'unlashgan holda qo'llash samaradorligini aniqlash maqsadida 20 kundan so'ng kuzatuv olib borilganida, tuproqqa oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda ishlov berilib, begona o'tlarga qarshi gerbitsid qo'llanilmagan nazorat variantida bir yillik begona o'tlar soni 28,20 dona/m² (32,5%) ga, ko'p yillik begona o'tlar soni esa 16,80 dona/m² (18,6%) ga ortganligi, kuzgi shudgor oldidan Dafosat

gerbitsidi 6,0 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda bir yillik begona o'tlar soni 6,65 dona/m² (67,2%) ga, ko'p yilliklar esa 3,75 dona/m² (73,2%) ga, chigit ekish bilan birga Stomp gerbitsidi 2,0 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda bir yillik begona o'tlar soni 4,60 dona/m² (77,7%) ga kamayganligi kuzatilib, ko'p yillik begona o'tlar esa 15,30 dona/m² (5,1%) ga ko'payganligi aniqlandi.

Ikki yarusli plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanib, begona o'tlarga qarshi gerbitsid qo'llanilmagan nazorat variantida bir yillik begona o'tlar soni 20,80 dona/m² (23,8%) ga, ko'p yillik begona o'tlar soni esa

13,67 dona/m² (16,3%) ga ortgan bo'lsada, kuzgi shudgor oldidan Dafosat gerbitsidi 6,0 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda bir yillik begona o'tlar soni 4,70 dona/m² (73,9%) ga, ko'p yilliklar esa 2,30 dona/m² (82,0%) ga, chigit ekish bilan birga Stomp gerbitsidi 2,0 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda bir yillik begona o'tlar soni 2,60 dona/m² (84,1%) ga kamaygan bo'lsada, ko'p yillik begona o'tlar 12,63 dona/m² (3,6%) ga ko'payganligi kuzatildi.

Tuproqqa asosiy ishlov berish usullariga nisbatan esa 20 kundan so'ng bir yillik begona o'tlarga ta'siri 6,4% gacha, ko'p yillik begona o'tlarga ta'siri 8,8% gacha, 40 kundan so'ng bir yillik begona o'tlarga ta'siri 5,9% gacha, ko'p yillik begona o'tlarga ta'siri 8,8% gacha, 60 kundan so'ng esa bir yillik begona o'tlarga ta'siri 6,3% gacha, ko'p yillik begona o'tlarga ta'siri 5,2% gacha yuqori natija berganligi qayd etildi.

G'o'za qator orasiga 15-20 sm chuqurlikda kultivator yordamida ishlov berish va gerbitsidlar qo'llashning kuzgi bug'doy maydonlaridagi begona o'tlarga ta'siri

Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtiriladigan maydonlarda yerga asosiy ishlov berish tadbirini o'tkazish jarayoni begona o'tlarga qarshi kurashishda asosiy o'rin egallaydi. Yerga ishlov berish usullari va chuqurligini to'g'ri tanlash natijasida kuzgi bug'doy maydonlaridagi bir va ko'p yillik begona o'tlarning 50-60% ni yo'qotish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, uning ayrim kamchiliklaridan eng asosiysi, bu tadbir o'tkazilganda yuqori miqdorda energiya sarflanib, kutiladigan hosilni tannarhining oshishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan manbalarga tayangan holda, olib borgan tadqiqotlarimizda vegetatsiya davri boshida begona o'tlarga qarshi g'o'za qator orasiga 15-20 sm chuqurlikda kultivator yordamida ishlov berishdan oldin va ishlov berishdan keyin variantlar kesimida begona o'tlar hisobga olindi.

Olingan ma'lumotlarga qo'ra, tuproqqa oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda ishlov berilib, begona o'tlarga qarshi gerbitsid qo'llanilmagan nazorat 1-variantda tuproqqa ishlov berishdan oldin bir yillik begona o'tlar jami 24,90 dona/m² ni, ishlov berilganidan keyin 11,40 dona/m² ni tashkil etgan bo'lsa, ko'p yillik begona o'tlar jami 13,75 dona/m² ni, tuproqqa ishlov berilganidan keyin esa 7,80 dona/m² ni tashkil etganligi kuzatildi.

Ushbu fonda (chigit ekishda shudgorlashdan oldin) begona o'tlarga qarshi gektariga 6,0 l me'yorida Dafosat gerbitsidi qo'llanilgan 2-variantda tuproqqa ishlov berishdan oldin bir yillik begona o'tlar soni jami 8,15 dona/m² ni, ishlov berilganidan keyin 3,25 dona/m² ni tashkil etgan bo'lsa, ko'p yillik begona o'tlar soni jami 5,35 dona/m² ni, tuproqqa ishlov berilganidan keyin esa 3,20 dona/m² ni ko'rsatganligi aniqlandi. Begona o'tlarga qarshi gektariga 2,0 l me'yorida Stomp gerbitsidi qo'llanilgan 3-variantda tuproqqa ishlov berishdan oldin bir yillik begona o'tlar soni hisobga oliganida jami 5,70 dona/m² ni, ishlov berilganidan keyin 3,0 dona/m² ni, ko'p yillik begona o'tlar soni esa jami 12,40 dona/m² ni,

tuproqqa ishlov berilganidan keyin bu ko'rsatkich 6,20 dona/m² ga teng bo'lganligi qayd etildi.

Tuproqqa ikki yarusli plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgor qilinib, begona o'tlarga qarshi gerbitsid qo'llanilmagan nazorat 4-variantda tuproqqa ishlov berishdan oldin bir yillik begona o'tlar hisobga olinganida jami 17,90 dona/m² ni, ishlov berilganidan keyin 8,25 dona/m² ni, ko'p yillik begona o'tlar esa jami 10,40 dona/m² ni, tuproqqa ishlov berilganidan keyin esa 5,25 dona/m² ni tashkil etganligi aniqlandi.

Yuqoridagi fonda begona o'tlarga qarshi gektariga 6,0 l me'yorida Dafosat gerbitsidi qo'llanilgan 5-variantda tuproqqa ishlov berishdan oldin bir yillik begona o'tlar soni jami 6,90 dona/m² ni, ishlov berilganidan keyin esa 2,60 dona/m² ni, ko'p

yillik begona o'tlar soni jami 4,50 dona/m² ni, tuproqqa ishlov berilganidan keyin esa 2,50 dona/m² ga teng bo'ldi. Begona o'tlarga qarshi gektariga 2,0 l me'yorida Stomp gerbitsidi qo'llanilgan 6-variantda begona o'tlar hisobga olinganida, bir yillik begona o'tlar soni jami 4,75 dona/m² ni, ishlov berilganidan keyin bu ko'rsatkich 2,30 dona/m² ni, ko'p yillik begona o'tlar soni esa jami 9,70 dona/m² ni, tuproqqa ishlov berilganidan keyin bu ko'rsatkich 4,05 dona/m² ga teng bo'lganligi qayd etildi.

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, begona o'tlarga qarshi tuproqqa turli xil usullarda asosiy ishlov berish bilan birga gerbitsidlarni uyg'unlashgan holda qo'llashni begona o'tlarga ta'siri sezilarli bo'lganligi kuzatildi.

Kuzgi bug'doy dalasida olib borgan tadqiqotlarimizda begona o'tlarga qarshi g'o'za qator orasiga 15-20 sm chuqurlikda kultivator yordamida ishlov berilib, kuzgi bug'doyning tuplanish davrida bir yillik begona o'tlarga qarshi Granstar 20,0 g/ga, ko'p yillik begona o'tlarga qarshi Granstar plyus 25,0 g/ga me'yorlarda gerbitsidlar qo'llanilganda, g'o'za maydonidagi begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan holda kurashni kuzgi bug'doy dalasidagi keyingi ta'sirini o'rganish maqsadida gerbitsid sepishdan avval va 30 kundan keyin variantlar kesimida begona o'tlar soni hisobga olib borildi.

Olingan ma'lumotlarni ko'rsatishicha, begona o'tlarga qarshi tuproqqa oddiy plug' bilan 28-30 sm chuqurlikda ishlov berilib, gerbitsid qo'llanilmagan holda o'tmishdosh ekin sifatida g'o'za parvarishlangan hamda g'o'za qator orasiga 15-20 sm chuqurlikda kultivator yordamida ishlov berilib, asosiy ekin sifatida kuzgi bug'doy ekilgan va gerbitsid qo'llanilmagan nazorat 1-variantda gerbitsid qo'llashdan oldin bir yillik begona o'tlar hisobga olinganida jami 23,6 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa jami 5,9 dona/m² ni tashkil etgan bo'lsa, o'tmishdosh ekin sifatida g'o'za parvarishlanganida gektariga 6,0 l/ga me'yorda Dafosat gerbitsidi qo'llanilgan 2-variantda bir yillik begona o'tlar soni 20,9 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa 3,9 dona/m² ni tashkil etgani holda nazorat variantiga nisbatan bir yilliklar 2,7 dona/m² ga, ko'p yilliklar esa 2,0 dona/m² ga, o'tmishdosh ekin sifatida g'o'za parvarishlanganida gektariga 2,0 l/ga me'yorda Stomp gerbitsidi qo'llanilgan 3-variantda bir yillik begona o'tlar soni hisobga

olinganida 18,5 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa 4,8 dona/m² ni ko'rsatib, nazorat variantiga nisbatan bir yilliklar 5,1 dona/m² ga, ko'p yilliklar esa 1,1 dona/m² ga kam unib chiqqanligi qayd etildi.

Tadqiqotimiz davomida, begona o'tlarga qarshi tuproqqa ikki yarusli plug bilan 28-30 sm chuqurlikda ishlov berilib, gerbitsid qo'llanilmagan holda o'tmishdosh ekin sifatida g'o'za parvarishlangan hamda g'o'za qator orasiga 15-20 sm chuqurlikda kultivator yordamida ishlov berilib, asosiy ekin sifatida kuzgi bug'doy ekilgan va gerbitsid qo'llanilmagan nazorat 4-variantda gerbitsid qo'llashdan oldin bir yillik begona o'tlar hisobga olinganida jami 20,5 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa jami 4,5 dona/m² ni tashkil etgan bo'lsa, o'tmishdosh ekin sifatida g'o'za parvarishlanganida gektariga 6,0 l/ga me'yorda Dafosat gerbitsidi qo'llanilgan 5-variantda bir yillik begona o'tlar soni 16,3 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa 2,6 dona/m² ni tashkil etib, nazorat variantiga nisbatan bir yilliklar 4,2 dona/m² ga, ko'p yilliklar esa 1,9 dona/m² ga, o'tmishdosh ekin sifatida g'o'za parvarishlanganida gektariga 2,0 l/ga me'yorda Stomp gerbitsidi qo'llanilgan 6-variantda bir yillik begona o'tlar soni hisobga olinganida 13,9 dona/m² ni, ko'p yilliklar esa 3,3 dona/m² ni ko'rsatib, nazorat variantiga nisbatan bir yilliklar 6,6 dona/m² ga, ko'p yilliklar esa 1,2 dona/m² ga kam unib chiqqanligi aniqlandi.

Tajriba variantlaridan olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'tmishdosh ekin sifatida g'o'za parvarishlanib, begona o'tlarga qarshi tuproqqa turli xil usullarda asosiy ishlov berish bilan birga gerbitsidlarni uyg'unlashgan holda qo'llashning kuzgi bug'doy dalasidagi begona o'tlarga keyingi ta'siri sezilarli darajada bo'lganligi kuzatildi.

Tadqiqotimizda begona o'tlarga qarshi kuzgi bug'doyning tuplanish davrida bir yillik begona o'tlarga qarshi Granstar 75% DF 20 g/ga, ko'p yillik begona o'tlarga qarshi Granstra plyus 25 g/ga me'yorlarda gerbitsid qo'llanilganidan 30 kundan so'ng variantlar kesimida begona o'tlar soni hisobga olinganida variantlar o'rtasida qo'llanilgan gerbitsidlarni begona o'tlarga ta'siri sezilarli bo'lganligi kuzatildi.

Jumladan, nazorat 1-variantda jami bir yillik begona o'tlar soni 34,7 dona/m² ni, ko'p yillik begona o'tlar soni esa 11,2 dona/m² ni tashkil etib, dastlabki holatga nisbatan bir yillik begona o'tlar 11,1 dona/m² ga, ko'p yillik begona o'tlar soni 5,3 dona/m² ga ko'p bo'lganligi aniqlandi.

Kuzgi bug'doyning tuplanish davrida gektariga 20,0 g/ga me'yorida Granstar gerbitsidi qo'llanilgan 2-variantda bir yillik begona o'tlar soni 2,9 dona/m² ni tashkil etib, dastlabki holatga nisbatan 18,0 dona/m² ga kam bo'lgan bo'lsa, ko'p yillik begona o'tlar soni 5,1 dona/m² ni tashkil etib, dastlabki holatga nisbatan 1,2 dona/m² ga ortganligi kuzatildi.

Olingan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, tajribada o'tmishdosh ekin sifatida g'o'za parvarishlangan maydonda begona o'tlarga qarshi qo'llanilgan tuproqqa asosiy ishlov berish usullari hamda gerbitsidlarni uyg'unlashgan holda qo'llashni kuzgi bug'doy dalasidagi bir va ko'p yillik begona o'tlarga keyingi ta'siri sezilarli darajada bo'lganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-

- 1 5742-son «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» gi farmoni

Teshabaev Sh.A., Xoshimov I.N. "G'o'za maydonlarida o'suvchi

- 2 begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan kurash" AGRO ILM 2020 №1.B. 57-59

SH.TESHABAYEV. "Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimida

- 3 begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan kurash tizimini tuproqning agrofizik xossalari ta'siri" Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini B/150-152